



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning
20__ - 20__ - o'quv yiliga 8 - sinflar uchun
IV chorak adabiyot fanidan

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf adabiyot fanidan IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	Shukur Xolmirzayev: “O‘zbeklar” hikoyasi	1		
2.	“O‘zbeklar” hikoyasi matni ustida ishlash	1		
3.	“O‘zbeklar” hikoyasi tahlili	1		
4.	Shukur Xolmirzayev: “O‘zbeklar” hikoyasi. Nazariy ma’lumot. Xarakter	1		
5.	To‘ra Sulaymon.“Tavallo” she’ri	1		
6.	To‘ra Sulaymon.“Iltijo” she’ri tahlili	1		
7.	Nazorat ishi-7	1		
8.	Muhammad Yusuf. "Iqror" she’ri	1		
9.	Muhammad Yusuf. "Sevgi bu" she’ri	1		
10.	Muhammad Yusuf. "Lolaqizg‘aldoq" she’ri	1		
11.	Robindranat Thakur. "Shubxa" hikoyasi	1		
12.	"Shubxa" hikoyasi matni ustida ishlash	1		
13.	"Shubxa" hikoyasi tahlili	1		
14.	Nazorat ishi-8	1		
15.	Adabiy laboratoriya	1		
16.	Adabiy laboratoriya	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Shukur Xolmirzayev: “O‘zbeklar” hikoyasi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo‘nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlarning insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o‘ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis mulohaza yuritish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Shukur Xolmirzayev 1940-yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tugʻilgan. Yozuvchi hikoya, roman, qissa janrlarida qalam tebratdi, “Oq oʻtli”, “Toʻlqinlar”, “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?” asarlari 60-yillar oʻzbek qissalarining eng yaxshi namunalari boʻlib qoldi. Yozuvchining hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining oʻziga xos romantikasi ifodalangan boʻlsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tugʻilib oʻsgan Boysun

tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, ularning ruhiy olamida kechgan kurash va oʻzgarishlar oʻzining badiiy talqinini topdi. Ijodkor roman janrida ham bir qator asarlar yozgani va ular oʻzbek romannavisligi tarixida

muayyan oʻringa ega boʻlganiga qaramay, avvalo, hikoyanavis sifatida shuhrat qozondi. U oʻzbek hikoyanavisligini rus va Yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Shukur Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyaning oʻziga xosligi, qahramonlar tilining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida oʻzbeklarga xos milliy xarakter, inson va tabiat munosabatlari teran badiiy talqinini topgan. Adib 2005-yili Toshkent shahrida vafot etgan. Biz oʻqiydigan “Oʻzbeklar” hikoyasi yonimizda yurgan, bizga tanish oddiy oʻzbek kishilariga xos xususiyatlar haqida hikoya qiladi. Unda millatimizga xos soddalik, ochiqkoʻngillik, bagʻrikenglik va saxovatpeshalik kabi ezgu fazilatlar bilan birga ayrim salbiy jihatlar ham ochib berilgan.



OʻZBEKLAR

I

Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinchi kursda paxtaga bordik. Oʻsha Boʻka rayoniga. Chetdagi bir kolxoziga. Mana shu oʻzimizning Surxon vohasiga oʻxshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoqlar oʻsgan. Bogʻ-bogʻ yosh qamishni tagi bilan oʻtqazib qoʻyganday. Yeri jiqqa ajriqzor. Mol oʻtlaydigan,

bolalar chillak oʻynaydigan yer-da! Qadrdon, men uning oʻzimga, mana shu koʻngil qurgʻurga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da! Xullas, ana shu ajriqzordan sal oʻtgandan keyin qishloqcha boshlanadi. Yigimna-oʻttiz xonadon tursa kerak. Tomlari bari loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyilgan, yomgʻir yogʻib oʻtgan payt edi, pichanlar sap-sariq. Baʼzisining ustida yosh bolakaylar oʻtirardi. Bizni koʻrib qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq koʻchada mashinamiz toʻxtadi.

Oʻqituvchilar oʻzaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi. Bitta brigadimning bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashadigan boʻldik. Buyam shunchaki somonsuvoq

qilingan. Deraza romlari yoʻq. Yertzax. Odatdagi... baraklardan farqsiz edi. Shuni aytish kerakki, savod masalasida ham ulardan kam emas, baʼzan balandlik ham qilib qolardik: har qalay oʻnni bitirib, toʻgʻri institutga kirgan bolamiz. Bilimlar hali “svejiy”... Bundan tashqari, oʻzingizga maʼlum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental kutubxonaning faol oʻquvchilaridan.

Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir... qishloqimiz-da, toʻgʻrisi. Balki “uddalik” bobida ham ancha joʻn edik.

Yoʻq? E! Sizni oʻsha uyga joylab qoʻysa, nima qilardingiz? Kolxoz idorasidagi

bug‘aitirning xonasidan pechni qo‘porib kelarmidingiz? Kelolarmidingiz? Yo‘q. Deraza o‘rniga nima tutar edingiz? To‘l... Uni qayerdan topardingiz? Ana shunday...

O‘rmon degan bir kurskomimiz bor edi. Novcha, oriqlik yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. Sibirgapomidor, piyozborib sotgan. Poyezddagisarguzashtlarini eshitib, hee... Pishiq bolalar-da! Komsorgimiz ham Azimjon degan yigit edi. Nuqul Remark bilan Hemingueyni o‘qib: “Bizning yozuvchilarimiz yolg‘onchi”, - deb yurardi. Men? Albatta, unga qarshi turardim!..

Shunday qilib, joylashib oldik. Yerga poxol to‘shadik, ustiga chodir yoydik. Keyin ko‘rpa-to‘shakni yozdik. Choynak, chelak ham topib kelishdi. Kech bo‘lib qolgan edi. Bilasiz, dastlabki kecha uxlash qiyin. Latifa aytishardi bolalar: “Siz ko‘rgan o‘sha afandi, siz bilgan o‘sha afandi...” Bolalar darhol to‘rni, yon tomonlarni egallab olishgani uchun menga eshik og‘zidagi joy teggan edi, bilmadim, kechasi eshik ochilib ketganmi, sahar tursam, burnim bitib qolgan.

Havoda zildek og‘ir, qoramtir bulutlar aylanar, lekin etakdagi paxtazor yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Ikkinchi terimdan chiqqan. Ko‘p g‘o‘zalar barg to‘kib, sarg‘ayib qolgan.

Ayvon

ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O‘sha tutlar... U yer-bu yerda chug‘urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi tomonida bo‘zrang bir uzun imorat ko‘rinardi. Uning oldida bakni qaynatishyapti shekilli, karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.

Keyin shundoq pastlikdagi paxtazorni bizdan ajratib turgan ariq bo‘yidagi yolg‘iz kulbaga ko‘zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlarg‘ujg‘on: chiriqchiriq...

Ariq bo‘yida esa bir qoraqalpoq kursdoshim, ha, o‘sha - Saparboy maykachan bo‘lib chopib yuribdi. Bet-qo‘lni yuvgani pastga endim.

- Yechin. Yugur. Fizkultura qii! - dedi Sapar.

- E, piskulturam chiqib turibdi, - dedim.

Shundaqarasam, haligi kulba... odamyashaydigan uychaekan. Men, bilmadim, uni bostirma deb o‘ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor. Uychaning oldida esa, bilasizmi nima, o‘rmak... o‘rmak tikilgan. Bir ayol katta tayoq bilan gursillatib urib, kalavani qatimlar orasidan u yoq-bu yoqqa otib, sholcha to‘qiyapti. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon!

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Talaba yigitning bu yerlardan zavqlanishi sababi nima edi?

2. Qaysi detallar talaba xarakteriga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qilmoqda? Sizningcha, qahramon qaysi davr haqida gapiryapti?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Kuzatganingizdek, hikoyaning kirish qismida yozuvchi tabiat, atrof-muhitni roviy tilidan batafsil tasvirlab bergan. Siz ham ko‘nglingizga yaqin manzarani so‘z yoki rangli qalamlar vositasida ifodalab bering.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “O‘zbeklar” hikoyasi matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo‘nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlarning insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o‘ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis mulohaza yuritish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshanasiga tushirdi.

- Assalomu alaykum, hormang, opa! - dedim.

- Keling, uka, - dedi u. - Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib oldinglarmi?

- Ha, rahmat. Judaa yaxshi joylashdik... Shu uyda yashaysizlarmi?

- Ha, - dedi u. - Xo‘jayin molga ketgan. “Molga ketgan!”

- Mol ham boqasizlarmi? - dedim.

- Ha, kolxoz bir otar berib qo‘ygan. “Bir otar!” O, Toshkentda bu so‘zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. Ana shunday qilib, bularga birdan ko‘nglim ilidi.

- Echkimi, qo‘ymi? - dedim.

- Aralash. Qarasam, uychaning narigi tomonida uzun qo‘ra bor. Tevaragi shox-shabba bilan o‘ralgan. Sekin o‘tdim. Qiy hidi... Ha-ha-ha! Qo‘raning erganagidan qaradim: yetmish-sakson mayda mol sig‘arkan... Men nimagadir bu yerlarda ham odamlar faqat paxtani biladi deb o‘ylardim. Endi deng, mol tufayli paxtayam ko‘zimga yuz chandon yaxshi ko‘rinib ketdi. Buning ustiga havo yumshoq, g‘o‘zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq, zilol suv oqyapti... O! O‘sha paytlar Bo‘kadayam suvlartoza bo‘lgich edi. Ximikatlari ham kam sepilardi, nazarimda. Lekin men bu tomonlariga e‘tibor qilmaganman... Chunki o‘zimiz tarafdayam ximikat, suv notoza, ul-bul degan gaplar kam bo‘lardi. Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgandek edim. Shu payt uydan - yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. Ba‘zisi Saparga qo‘shilib chopishga tushdi. Ba‘zilari paxtazorga oralab ketishdi. O‘rmon aka o‘rmak to‘qiyotgan ayolning qoshiga keldi.

- Qalaysiz, opa? Hormang!

- Bor bo‘ling, uka... Kelib zap ish qildilaring-da...

- Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo‘ladimi? Ko‘k choy bormi? Qurug‘idan.

- Bor, bor. - Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi. Oyog‘ida eski kirza etik, uzun sochlari uchida sochbog‘l. Rangi o‘ngib ketgan ko‘ylagi g‘ijim. Sal o‘tmay, bir banka bilan bir parcha gazeta ko‘tarib chiqdi. Gazetani O‘rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to‘kildi, O‘rmon:

- Bo‘lar, rahmat, - dedi.

- Kerak bo‘lsa...

- Kerak bo‘lsa, yana so‘raymiz...

- Bemalol, og‘ajon. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o‘qishlarni qoldirib, otaonalaringni tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat...

- Endi, terish kerak-da! - dedi O‘rmon aka... - Ha, paxtaning kilogrammi necha tiyindan?

- Shu, o‘n tiyinmi, besh tiyinmi, men ko‘pam farqiga bormayman.

- E! Unday bo‘lmasa kerak! - dedi O‘rmon aka. Keyin kuldi. - Yaznamiz bilsalar kerak?

- Ha. U kishi biladilar.

- Yaxshi... Sizlar biron yoqdan kelganmisizlar deyman?

- Yo‘o‘q, biz shu yerning odami.

- Bundan boshqa uchastkalar ham bordir-da?

- Yo‘q, og‘ajon. Bori-shu... Buyam yaxshi. O‘zimiz uchjon. Jiyaningizotasi bilan ketgan... Cho‘pon bo‘laman deydi. Hali zamon kep qoladi. Choyini qayerda ichasizlar?

- Choyini? Himm, bugun endi yotoqda... Keyin yana o‘ylab ko‘ramiz.

Men O‘rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta‘riflayotganga o‘xshayman. Yo‘q, bir hisobda u o‘zicha haq edi: bizniyam o‘ylardi, harqalay. Shundan keyin terimga jo‘nadik. Kun chiqib, uyam sarg‘ayib nur sochyapti. Biz etaklarni bo‘yinga ilib, xuddi oshalolga ketayotgan podachiday boryapmiz. E, do‘stim, menga mana shunday kun zarda berib

chiqayotganda namxush so‘qmoqlardan yurish ham yoqadi-da! Tepangda chug‘urchuqlar o‘ynaydi. Oyog‘ingga ho‘l yaproqlar o‘ralashadi. Unda-bunda xirmon joylardan bug‘ ko‘tariladi. Ko‘rganmisiz? G‘o‘zaning qavachog‘i yonishga mahtal bo‘ladi. Uzoq vaqt uyilib yotsa, tutun ham chiqib ketadi. O‘sha kuni terdik. Uyat o‘limdan qattiq... El qatori terdim. Lekin burun ochilmadi. Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab ko‘rdi-da:

- Osh, - dedi bizga qarab.

- Hu, - dedi O‘rmon aka, - qozon kichkina ekan-da.

- Yuring, yuring.

- Shoshmang. Ho xo‘jayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora choponining tirsaklari yirtilib paxtasi oqqan, soqoli o‘siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi o‘ngirini bosib oladigandek surilib-shoshib kelib, biz bilan bir-bir ko‘rishdi. - Xush kepsizlar, xush ko‘rdik! Qani, uyga marhamat!

- Oldin yuvinib olayiik-chi, - dedi O‘rmon aka. - Aytmoqchi, bir ukamizning tomog‘i shamollab qopti. Burning ham bitgan-a? - deb so‘radi mendan. - Shu, shu... Dori-pori topiladimi? Medpunktlaring markazda ekan, bu yer - Kamchatka.

- E, topiladi-da. Dori topiladi! - Yigit etigini qo‘lantayoq kiyib chiqqan ekan, oyog‘idan tushib qoladigandek talpanglab uyga kirdi. Keyin bir bog‘ ituzum olib chiqdi.

- Shu bo‘ladi, tomoqqa bog‘lasalar, - dedi.

- Bo‘ldi, bo‘ladi! - dedim. - Ozginasi bo‘ladi. - E, ozginani nima qilasan? - dedi O‘rmon aka. - Hali yana kerak bo‘ladi. Ituzumni olib yotoqqa keldim. Unga tikilaman: tanish-da bu o‘simlik ham! Qadrdon, bizdayam bir momo bo‘lgich edi. Bobomiz bosmachilarning otlariga xashak bergani uchun “xalq dushmani” deb otilib ketgan, undan qolgan o‘n bir qursoqni boqaman deb umrini toq o‘tkazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin Yaratganiga topshirib, bizning maymoq ota bilan qolgan... O‘sha kampir davolardi shunaqa ituzumlar bilan... tomoqlarimizni. Tildan tersak chiqsa, oq gulbo‘tani quritib-ezib, kukunini separd. Hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketardik. Omborimizda mana shunday ituzum bog‘laridan yog‘och qoziqlarga osib qo‘yardilar. Biz ham devordagi bir mixga osib qo‘ydik. Keyin mevasidan bir hovuch olib, bo‘z etakning chetidan bir parchani yirtib, mevani ezib-ezib tomoqqa ko‘tardik. Ertasi ko‘zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik. Bizga choy qaynatiladigan bak ortidagi kulbalarining orqasida hududsiz dalalar bor, biz o‘sha yoqda paxta terdik. Har joy-har joyda mitti-mitti shiyponchalar qo‘qqayib turardi. Yeri zax, devorlari qabarib ketgan, atrofida tuproq o‘ynab yotar, unda sichqon-kalamushlarning izlari ko‘p edi. Biz goho o‘shanday kulbachalarga kirib dam olardik. Men, men o‘zim o‘shanaqa joylarda izg‘ishni yaxshi ko‘rardim.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Matnning qaysi o‘rinlarida o‘zbeklarga xos xususiyatlamini kuzatdingiz? Yigit milliy iftixor deganda nimani nazarda tutmoqda?

2. Matnda tilga olingan obrazlar, shaxslar qaysi jihatlari bilan sizga tanish kishilarni eslatadi? Fikringizni dalillang.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

45 listdan iborat adabiyot fanidan 8-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**